

Karimjonova Shahloxon Ravshanjonovna, Farg'ona davlat universiteti,
Ingliz tili amaliy kursi kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)
e-mail: shahloxonkarimjonova@gmail.com [Orcid:0009-0006-0224-3315](https://orcid.org/0009-0006-0224-3315)



KOGNITIV FE'LLAR TASNIFI

<https://zenodo.org/records/18766247>

Annotatsiya. Ushbu maqolada fe'ning gapdagi mazmuniy va grammatik markaz sifatidagi o'rni hamda fe'l predikatlarining leksik ma'nodan kengroq semantik imkoniyatlari yoritiladi. S.D.Kasnelson qarashlariga tayangan holda fe'l predikatlarining "bo'sh o'rinlar" (valentlik) tizimi va ularning gap konstruksiyasini shakllantirishdagi tashkiliy roli asoslanadi. Zamonaviy tilshunoslikda fe'llarning yagona e'tirof etilgan mazmuniy tasnifi mavjud emasligi qayd etilib, paradigmatic yondashuv doirasida fe'llar invariant ma'noga ko'ra faoliyat, holat, xususiyat va munosabat fe'llariga ajratilishi ko'rsatib beriladi. Maqolaning asosiy e'tibori ruhiy faoliyat fe'llarining ichki mikromaydonlarini tasniflashga qaratilgan bo'lib, sezish, xohish, idrok (umumiy idrok, ko'rish, eshitish, hidlash), e'tibor, emotsional kechinma va munosabat, fikrlash hamda xotira fe'llari o'zbek va ingliz tilidagi misollar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot kognitiv leksikani tizimlashtirish, qiyosiy semantika, tarjima va til o'qitish amaliyoti uchun nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: kognitiv fe'llar, fe'l predikat, valentlik, leksik-semantik maydon, paradigmatic tasnif, ruhiy faoliyat fe'llari, idrok fe'llari, sezish, xohish, e'tibor, emotsiya, fikrlash, xotira, o'zbek tili, ingliz tili

CLASSIFICATION OF COGNITIVE VERBS

Abstract. This article explores the verb as the semantic and grammatical core of the sentence and argues that verbal predicates have a broader meaning potential than their basic lexical semantics. Drawing on S.D.Kasnelson's approach, it is shown that a verbal predicate not only denotes an event or state but also encodes a "sentence blueprint" through its valency structure (i.e., a set of semantic slots to be filled by arguments). The paper notes that modern linguistics lacks a universally accepted semantic classification of verbs; therefore, a paradigmatic perspective is employed, distinguishing verbs of activity, state, property, and relation on the basis of invariant meaning. The main focus is the classification of mental (cognitive) verbs into microfields, including verbs of sensation, desire, perception (general perception, visual perception, auditory perception, olfactory perception), attention, emotional experience and attitude, thinking, and memory. The analysis is supported by Uzbek and English examples drawn from literary sources. The study contributes to the systematization of the mental lexicon and provides implications for contrastive semantics, lexicography, translation, and language teaching.

Keywords: cognitive verbs, verbal predicate, valency, lexical-semantic field, paradigmatic classification, mental activity verbs, perception verbs, sensation, desire, attention, emotion, thinking, memory, Uzbek, English.

КЛАССИФИКАЦИЯ КОГНИТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ

Аннотация. В статье рассматривается роль глагола как смыслового и грамматического центра высказывания и раскрывается тезис о том, что глагольные предикаты обладают семантическим потенциалом, более широким, чем их “простое” лексическое значение. Опираясь на положения С.Д.Каснельсона, автор показывает, что глагольный предикат отражает модель будущего предложения и характеризуется системой валентностей («пустых позиций»), задающих конструктивную схему высказывания. Отмечается отсутствие универсально признанной содержательной классификации глаголов в современной лингвистике; в рамках парадигматического подхода глаголы классифицируются по инвариантному значению на глаголы деятельности, состояния, свойства и отношения. Центральным объектом анализа выступают микрополя глаголов психической деятельности: глаголы ощущения, желания, восприятия (общее восприятие, зрительное, слуховое, обонятельное), внимания, эмоционального переживания и отношения, мышления и памяти. Материал иллюстрируется примерами из узбекской и английской художественной литературы. Полученные результаты важны для описания “умственной лексики”, сопоставительной семантики, лексикографии, перевода и методики преподавания языков.

Ключевые слова: когнитивные глаголы, глагольный предикат, валентность, лексико-семантическое поле, парадигматическая классификация, глаголы психической деятельности, глаголы восприятия, ощущение, желание, внимание, эмоции, мышление, память, узбекский язык, английский язык.

Kirish.

Fe'llarning leksik ma'nosi ma'lum leksik-semantik tipning vakili bo'lib, u o'zida ma'lum ot kategoriyasi bilan birlashishga xoslangan kategorial belgini ham aks ettiradi [1]. Shu bilan birga, fe'llar o'z ichida ma'lum ma'no asosida birlashgan mazmuniy maydonlarni ham hosil qiladi. Fe'l gapning ham mazmuniy, ham grammatik markazini tashkil etadi. Shuning uchun ham u faqat leksik, morfologik jihatdangina emas, sintaktik nuqtayi nazardan ham e'tibor markazida turadi. S.D.Kasnelsonning ta'kidlashicha, ma'no planida fe'l predikatlar oddiy leksik ma'noga nisbatan kengroqdir [2]. Fe'l predikatlar ma'lum leksik ma'noni ifodalash bilan bir qatorda, u o'zida bo'lajak gap maketini ham aks ettiradi. Fe'l predikatlar ma'lum “bo'sh o'rin”larga ega bo'lishi bilan birga, o'zi ham mazmuniy jihatdan ma'lum mazmuniy paradigмага mansub bo'ladi. Uning fikricha, fe'l predikatlar oddiy leksik ma'nodan kengroq bo'lib, ular tuzilajak gapning konstruksiyasini shakllantirish imkoniyatiga ega. Bu yondashuv fe'lning faqat bir so'z sifatidagi ma'nosi bilan cheklanmasdan, uning gapdagi tashkillovchilik rolini ham ta'kidlaydi.

Zamonaviy tilshunoslikda fe'llarning hamma e'tirof etgan mazmuniy tasnifi mavjud emas. Turli tamoyillarga ko'ra, turlicha denotativ, paradigmatik va sintagmatik aspektida tasnif qilinadi.

Adabiyotlar tahili va metodologiya.

Kognitiv lingvistika zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlaridan biri bo'lib, 1970-yillarning boshlarida tilga bo'lgan rasmiy yondashuvlardan norozi munosabat tufayli shakllangan. Ushbu soha 1960-1970-yillarda zamonaviy kognitiv fan rivoji, xususan, insonlarni toifalash tadqiqotlari va gestalt psixologiyasi kabi avvalgi nazariyalarga asoslangan. Dastlabki tadqiqotlar asosan 1970-1980-yillarda kam sonli olimlar tomonidan

amalga oshirilgan bo'lsa, 1990-yillar boshida ushbu yo'nalishda faoliyat olib boruvchi va o'zlarini "kognitiv tilshunoslar" deb atagan tadqiqotchilar soni sezilarli darajada oshdi. 1989-1990-yillarda Kognitiv lingvistika jurnalining nashr etilishi bilan birga Xalqaro kognitiv lingvistika jamiyati tashkil etildi. Mashhur kognitiv lingvist Ronald Langaker ushbu davrni "kognitiv tilshunoslikning keng qamrovli, o'ziga xos intellektual harakati sifatida shakllangan bosqich" sifatida ta'riflagan.

Kognitiv tilshunoslik aniq bir nazariya emasligi sababli, u "harakat" yoki "tashabbus" sifatida tasvirlanadi. Aksincha, u umumiy yo'riqchi tamoyillar, farazlar va qarashlar majmuasini qabul qilgan yondashuvdir. Bu esa turli xil bir-birini to'ldiruvchi, qisman ustma-ust tushuvchi (ba'zan esa raqobatlashuvchi) nazariyalarning shakllanishiga olib kelgan.

Kognitiv tilshunoslar, boshqa tilshunoslar kabi, tilni uning o'ziga xosligi uchun o'rganadilar; ular tilning tizimlilik xususiyati, tuzilishi, bajaradigan funksiyalari va bu funksiyalar til tizimi orqali qanday amalga oshirilishini tasvirlash va izohlashga intiladilar. Biroq, kognitiv tilshunoslarning tilni o'rganishining muhim sababi shundaki, til tafakkur naqshlarini aks ettiradi degan farazga asoslanadi. Shunday qilib, tilni ushbu nuqtai nazardan o'rganish konseptualizatsiya naqshlarini o'rganishdir. Til kognitiv funksiyaga oynak vazifasini bajaradi, u tafakkur va g'oyalar tabiati, tuzilishi va tashkil etilishi haqida tushunchalar beradi.

Kognitiv tilshunoslikning boshqa tilni o'rganish yondashuvlaridan asosiy farqi shundaki, til inson ongining ba'zi asosiy xususiyatlari va tuzilish dizaynini aks ettiradi deb hisoblanadi. Bu faraz kognitiv tilshunoslik doirasida ishlab chiqilgan usullar, metodologiya va modellar qamroviga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, til modelini baholash uchun muhim mezonlardan biri bu modelning psixologik jihatdan asoslanganligini aniqlashdir.

Natija va muhokama.

Paradigmatik nuqtayi nazardan, fe'l invariant ma'noga ko'ra tasnif qilinadi. Bunga muvofiq harakat (faoliyat), holat, xususiyat, munosabat fe'llariga ajratiladi [3]. Fe'l predikatlarining bu semantik maydonlari o'z ichida yana mikromaydonlarni tashkil qiladi. Xususan, faoliyat fe'llarini, o'z navbatida, ruhiy faoliyat, nutqiy faoliyat, mehnat faoliyati va boshqa mikromaydonlarga bo'lish mumkin. Ruhiy faoliyat fe'llarini, o'z navbatida, yanada kichikroq mikromaydonlarga bo'lish mumkin [4]:

1) sezish (his qilish) fe'llari: *sezmoq, his qilmoq; to feel, to sense*. Masalan, *U (Nurmat tog'a) o'tgan umri, bolalari, xotini oldidagi qarzdand bir oz bo'lsa ham uzilgandek, o'zini yengil sezdi* (S.Ahmad, "Jimjitlik", 48-bet); *Children can feel, but they cannot analyze their feelings* (Ch.Bronte, "Jane Eyre", p.32);

2) xohish fe'llari: *istamoq, xohlamoq; to want, to desire*. Masalan, *U (Tolibjon) hayotda ana shunday quvonchli, nurli, beozor, huzur-halovatli damlarning ko'p bo'lishini, uzoq bo'lishini istardi* (S.Ahmad, "Jimjitlik", 152-bet); *I have given you answers enough for the present: now I want to read* (Ch.Bronte, "Jane Eyre", p.32);

3) idrok qilish fe'llari: ushbu fe'llar to'rt guruhga bo'linadi:

a) umumiy idrok: *anglamoq, bilmoq, payqamoq; to understand, to know*. Masalan, *Ana shu savolni Hamida bonu yigitning yuzida qalqqan iztirobdan payqadi-da, o'zi ham ikki o't orasida qolishi mumkinligini endi sezdi* (P.Qodirov, "Avlodlar dovoni", 11-bet); *I know you do; and it is that which makes the wonder* (J.Austen, "Pride and Prejudice", p.18);

b) ko'rish idroki: *ko'rmoq, ko'r bo'lmoq; to see, to be blind*. Masalan, *Humoyun esa qo'rchiboshiga "ma'zursiz" degan kabi jilmayib qo'rganini Hamida bonu aniq ko'rdi* (P.Qodirov, "Avlodlar dovoni", 12-bet); *She did laugh as she saw Heathcliff pass the window* (E.Bronte, "Wuthering Heights", p.133);

d) eshitish idroki: *eshitmoq, kar bo' lmoq; to hear, to be deaf*. Masalan, *Ba'zan sokin tog' kechasini bezovta qilib portlash tovushlari eshitiladi* (S.Ahmad, "Jimjitlik", 169-bet); *While pondering this new idea, I heard the front door open* (Ch.Bronte, "Jane Eyre", p.120);

e) hidlash fe'llari: *hidlamoq, sezmoq, to smell, to sniff*. Masalan, *Eshik yo'lakka qarab ochildi-yu, ichkaridan avval qo'lansa hid chiqdi, keyin zanjirlarning shaqirlashi va odamlarning g'ovuri eshitildi* (P.Qodirov, "Avlodlar dovoni", 51-bet); *Phoo! I can sniff it now* (J.Conrad, "Heart of darkness", p.56).

4) e'tibor fe'llari: *e'tibor qilmoq, e'tibor bilan eshitmoq; to pay attention, to listen carefully*. Masalan, *Xonzoda begim Komronning ko'zi yaltirab, lablari quruqshab turganiga endi e'tibor berdi* (P.Qodirov, "Avlodlar dovoni", 45-bet); *He paid no attention to my explanations, and playing with a stick of sealing-wax ...* (J.Conrad, "Heart of darkness", p.34).

5) emotsional kechinma fe'llari: *to 'ymoq; to be satisfied, to feel content*. 6) emotsional munosabat fe'llari: *sevmoq, hurmat qilmoq, yoqmoq; to love, to respect, to like*. Masalan, *U bilan xizmatkoriga muromliklar o'rmon chetidan yog'och uy qurib beradilar, uni "Baburin polos", ya'ni "Boburning elchisi" deb hurmat qiladilar* (P.Qodirov, "Avlodlar dovoni", 22-bet); *I loved her with all my heart* (W.Shakespeare, "Romeo and Juliet");

7) fikrlash fe'llari: *fikrlamoq, o'ylamoq, tasavvur qilmoq, taxmin qilmoq, yanglishmoq, xato qilmoq; to think, to reflect, to imagine, to assume, to make a mistake, to err*. Masalan, *Nurmat miltiqni endi o'qladi, deb o'yladi Hojimurod* (S.Ahmad, "Jimjitlik", 49-bet); *Miss Miller assumed the fourth vacant chair, which was that the nearest the door...* (Ch.Bronte, "Jane Eyre", p.66);

8) xotira fe'llari: *eslatmoq, esdan chiqarmoq; to remind, to forget*. Masalan, *Bayramxonning qat'iyat bilan yongan ko'zlari Akbarning yodiga bultur Sirhinddagi shiddatli jang paytlarini eslatdi* (P.Qodirov, "Avlodlar dovoni", 161-bet); *Your reproof, so well applied, I shall never forget: "had you behaved in a more gentlemanlike manner"* (J.Austen, "Pride and Prejudice", p.453).

Xulosa.

Zamonaviy tilshunoslik muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lgan inson aqliy leksikasini yanada ko'paytirishga qaratilgan. Ruhiiy leksika haqidagi bilimlarning deyarli yagona manbai til bo'lib, kognitiv harakatlar, jarayonlar va holatlarni tavsiflovchi fe'llar guruhini o'rganish, ayniqsa, muhim hisoblanadi. Garchi bu kognitiv leksikaning zaif proyeksiyasi bo'lsa-da, insonning kognitiv qobiliyatlari hali to'liq ochib berilmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Кибардина С.Б. Категории субъекта и объекта и теории валентности // Категории субъекта и объекта в языках различных типов. – Л.: Наука, 1982. – С.30.

2. Кацнельсон С.Д. К понятию типов валентности // Вопросы языкознания. – М.: Наука, 1987. – №3. – С.21.

3. Богданов В.В. Семантико-синтаксическая организация предложения. – Л.: ЛГУ, 1977; Чейф У.Л. Значение и структура языка. – М.: Прогресс, 1975. – С.116-120;

4. Нурмонов А., Махмудов Н., Ахмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992. – Б.51.

5. Сильницкий Г.Г. Семантические типы ситуаций и семантические классы глаголов // Проблемы структурной лингвистики. – М., 1973. – С.373-390.

6. Karimjonova, S. (2025). SEMANTIC STRUCTURES OF PERCEPTION VERBS IN ENGLISH AND UZBEK: A CROSS-LINGUISTIC COMPARISON. *TARAQQIYOT SPEKTRI*, 1(8), 63-68.

7. Karimjonova, S. R. (2022). The linguistic functions of intonation components. *Oriental Art and Culture*, 3(4), 601-606.
8. Karimjonova, S. (2025). O 'ZBEK TILIDAGI VIZUAL-KOGNITIV FE'LLARNING LOKUTIV, ILLOKUTIV VA PERLOKUTIV NUTQ AKTLARIDAGI FUNKSIYALARI. " *Issues of Turkish Philology*", 1(1).
9. Karimjonova, S. R. (2024). The historical and cultural heritage of the Silk Road: Urgent issues and research prospects. *Madani Multidisciplinary Journal*, 4, 1557-65.
10. Karimjonova, S. R. (2021). Cognitive Aspects Of The Causative Verb To Have In Modern English. *Current Research Journal Of Philological Sciences (2767-3758)*, 2(11), 141-145.
11. Ravshanjonovna, K. S. (2025). KOGNITIV LINGVISTIKA DOIRASIDA TUSHUNCHA VA KONSEPTGA OID YONDASHUVLARNING QIYOSIY TAHLILI. *PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI*, 15(01), 191-193.